

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY QADRIYATLARNI
SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA PEDAGOGIK JARAYONDA
FOYDALANISHNING METOD VA USULLARI

Faxxodova Durdona Mansur qizi¹

¹ Termiz davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

Oolloqulova Farzona Umedillayevna¹

¹ Ilmiy rahbar, Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.03.2025

Ushbu maqolada ta'lif-tarbiya jarayonida qadriyatlarning o'rni, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy qadriyatlar asosida barkamol shaxs etib tarbiyalashning usul va metodlari haqida fikr yuritilgan

Revised: 30.03.2025

Accepted: 31.03.2025

KALIT SO'ZLAR:

Aksiologiya,
qadriyat, tarbiya,
ma'naviy meros, milliy
urf-odatlar, an'analar,
tarbiya, usul, vosita,
barkamollik, xalq
og'zaki ijodi

KIRISH. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda xalqning madaniy qadriyatları, ma'naviy merosi uzoq ming yillar davomida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbayi bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqlar bo'lib o'tgan bo'lsada, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga erishdi. Mustaqillikdan keyingi yillarda ma'naviy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan bu sohaga alohida e'tibor talab etilmoqda. Milliy o'zlikni anglash, milliy madaniy merosni tiklash, yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash vositalari xususida gap borar ekan, milliy-ma'rifiy ishlar, ularni yo'lga qo'yish, o'tkazish usullari alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan

kuchli ma’naviyat”, – deb e’tirof etdilar.¹¹ Yoshlarning turmush tarzida, ruhiyatida, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllanishda, islom diniga e’tiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqin munosabatda ham shu omil namoyon bo‘ladi. Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o’tgan sharq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyatini rivojlantirishga qo’shgan g‘oyat katta hissalari ham bu yerda yashayotgan odamlar turmushining barcha tomonlariga sezilarli ta’sir o’tkazgan. O’tmishdagi allomalarining bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma’naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi. Ular hamon ta’sir ko’rsatmoqda. Yoshlarimiz o‘z xalqi, mamlakatining tarixini, milliy madaniy merosini, qadriyatlarini toptatmasligi, o‘ziga xoslikni yo‘qotmasligi uchun ham milliy qadriyatlarni o‘rganishi, bilishi kerak bo‘ladi.

Ta’lim bugungi kunda qadriyatli paradigmaga o‘tish davrida. Bu ta’limning qadriyat sifatida baholanishi bilan bog‘liqdir. Jamiat hayotida milliy-ma’naviy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Davlatimiz rahabari Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”, - deb ta’kidlab o’tgan edilar¹².


Aksiologiya (axio — qadriyat, logos - fan, talimot) qadriyatlar haqidagi fan. U XIX asrning 2-yarmida nemis faylasufi E.Gartman va fransuz P.Lapi tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan. Aksiologiya aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to‘plangan qadriyatlар to‘g‘risidagi bilimlar tizimidir. Zamонавиј aksiologiyada obyektiv subyektiv va pluralistik oqim hamda yo‘nalishlar mavjud. Aksiologiya “qadr”, “qadrlash”, “qadriyatlар”, “qadriyatlар tizimi” kabi aksiologik kategoriyalarni, ularning turli shakllarini o‘rganadi. Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim¹³

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishda bir qator ta’limiy va tarbiyaviy vositalardan o‘rinli, maqsadga muvofiq va samarali foydalanishga alohida e’tibor beriladi. Jumladan:

¹¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev .“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent shahri, 2019-yil 3-may.

¹²O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev .“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish.” Nutqi. 2021-yil 19-yanvar.

¹³ “Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua Toshkent – 2025



Bolalarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy va an'anaviy pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Quyida asosiy texnologiyalar keltirilgan:

1. O'yin texnologiyalar. O'yinlar orqali bolalarga ma'naviy qadriyatlarni singdirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi:

- Ma'naviy mazmunli rolli o'yinlar: Bolalar turli vaziyatlarni o'ynab, to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni o'rGANADILAR.
- Didaktik o'yinlar: Savodxonlik, hurmat, halollik kabi mavzularga yo'naltirilgan o'yinlar.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). Ma'naviy qadriyatlar haqida multfilmlar va videolar: Bolalar axloqiy saboqlarni interaktiv tarzda tushunib oladilar. Onlayn resurslar: Ma'naviyat va axloq mavzusidagi elektron kitoblar, interaktiv darsliklar. Mobil ilovalar: Yosh bolalar uchun ma'naviy tarbiya va ijobiyligi qadriyatlarni singdirishga qaratilgan dasturlar.

3. Muammoli o'qitish texnologiyasi. Bolalarga hayotiy muammoli vaziyatlar taqdim etilib, ulardan mustaqil ravishda axloqiy yechim topish so'raladi. Masalan: Do'stlikni qadrlash, odamlarga yordam berish masalalari bo'yicha muhokamalar.

4. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. Bu texnologiya har bir bolaning individual qobiliyati va ma'naviy ehtiyojlarini inobatga olishni ta'minlaydi. Masalan:

- Har bir bola bilan alohida suhbat.
- Ma'naviy mavzularda ijodiy topshiriqlar (she'r, insho, rasm chizish).

5. Ko'rgazmali texnologiyalar. Rasmlar, suratlar, plakatlar yordamida ma'naviy qadriyatlar haqida ma'lumot berish. Ma'naviy o'gitlar yozilgan devoriy gazeta va stendlar.

6. Jamoaviy o'qitish texnologiyalari. Guruhli muhokama va fikr almashish. Ma'naviy mavzularda loyiha ishlari, masalan, "Oiladagi mehr-muhabbat" mavzusida loyiha yaratish.

7. Integratsion texnologiyalar. Ma’naviy qadriyatlarni boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘rgatish. Masalan: Tarix darslarida vatanparvarlik. Adabiyot darslarida axloqiy saboqlar.

8. Ta’lim-tarbiya jarayonida an’ana va urf-odatlardan foydalanish. O‘zbek xalqining qadriyatlari, masalan, katta-kichikka hurmat, saxovat va odob haqidagi darslar. Milliy bayramlar va tadbirlarda bolalarga ma’naviyatni singdirish.

9. Refleksiya va tahlil texnologiyalari. Bolalar qilgan ishlarini tahlil qilish va ularni to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatish: “Bugun qanday yaxshilik qilding?” kabi savollar orqali o‘zini baholashni rag‘batlantirish. Ushbu texnologiyalarni birgalikda qo‘llash orqali bolalarning ma’naviy rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘sish mumkin.

Tarbiya va ta’limning milliy xususiyatlari ma’naviy qadriyatlар tizimida o‘z o‘rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog‘liq ekanligi qanchalik haqiqat bo‘lsa, bularni milliy ruhini tarbiyalash zarurati ham shunchalik muhim hodisadir.

Ma’naviy qadriyatlар shaxsni axloqiy shakllantirishning asosiy omili bo‘lib, ular ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta’lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo‘ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san’at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy arxitektura va hokazolar hisoblanadi. Shuningdek, o‘zbek xalqining milliy an’analari, bayramlari, udum va odatlari, O‘zbekistonda o‘tgan mutafakkirlaming ma’naviy merosi, yozma asarlar, rivoyat va afsonalar, muqaddas joylar, tarixiy yodgorliklar, musiqa va qo‘shiqlari, cholg‘u asboblari, o‘yinlari, dehqonchilik va hunarmandchilik kabilalar ma’naviy qadriyatlaming asosini tashkil etadi. Ular kishilaming bir-birlariga, vatanga, oilasiga bo‘lgan munosabatidagi axloq xulq-atvorida, odob va xatti-harakatida namoyon bo‘ladi¹⁴.

Milliy tarbiya - xalqning o‘z-o‘zini saqlash va istiqbolini ta’minalash omilidir. Avvalo, faxrlanish, milliy- tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an’analari va qadriyatlarning birlashuvidan kelib chiqadi. Chuqur ildizi o‘tmishdagi an’anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik assoslari O‘zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ochiqko‘ngillilik millatidan qat’i nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zgalar kulfatiga hamdard bo‘lish va o‘zaro yordam tuyg‘usi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning me’yori hisoblanadi. O‘zbeklar diyoriga, o‘z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma’rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom — O‘zbekiston yoshlariga xos fazilatlardir. O‘quvchining ma’naviy-axloqiy madaniyati shakllanishi uchun qo‘yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammo xarakteriga ega bo‘lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog‘liqdir.

Har bir fan oldiga qo‘yiladigan umumiy talablar qadriyat g‘oyasiga ham bevosita dahldor. Ayni paytda, milliy qadriyatlarning jamiyat, milliy madaniyat negizlari asosida shakllanishi,

¹⁴ “Milliy istiqlol g’oyasi” Darslik. Toshkent: 2007.

xalqning ishonch va e'tiqodiga aylanishi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ham hisobga olish kerak. Bunda har bir o'sib kelayotgan shaxsning individual xususiyatlari, uning o'ziga xos dunyoqarashi, shunga mos tafakkur va hayot tarzi, milliy ong, o'zligini anglaganligi darajasi alohida o'ringa ega. Milliy qadriyatlariga, an'analarga, tarixi, ona tili, madaniyatiga bo'lgan munosabatda shakllangan va mustahkamlangan qalbdagi ruhiyati, e'tiqodi, sadoqati bilan vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulari o'zining va millatining sha'ni, qadr qimmatini hurmat qilishda namoyon bo'ladi. Shuningdek har bir insonda umuminsoniy qadriyatlar boshqa xalqlar va millatlarning madaniy yutuqlariga o'zaro manfaatdarlik hamda milliy taraqqiyotida uni mustahkamlash nuqtai nazaridan qarash, baholash ko'nikmalari, sa'y-harakatlari orqali o'z ifodasini topadi.

Xulosa qilib aytganda tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o'zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. Ko'p yillar davomida ota-bobolarimiz qalbiga singib ketgan ushbu qadriyatlarni bugun yanada sayqallash kerakligini zamon talab etmoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat rivojiga va uning negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi qudratli omildir. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maskanlarida o'quvchilarimiz bolalik, o'smirlilik, balog'at sari borishlarida ibratli dovondan o'tishi uchun ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatguvchi bir mayoq bo'lishimiz bugungi kun talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev .“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent shahri, 2019-yil 3-may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev .“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish.” Nutqi. 2021-yil 19-yanvar.
3. “Kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua Toshkent – 2025
4. “Milliy istiqlol g’oyasi” Darslik. Toshkent: 2007.
5. Farxodova Durdonha Mansur qizi. (2023). VATAN BILAN ULG’AYAR SHON-U SHAVKATIMIZ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7598194>
6. S.X.Qodirova, R.M.Nazarova, F.M.Axmedova, N.S.Salimsaqova “MILLIY ISTIQLOL G’OYASI: ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLAR” (ma’ruzalar matni). Toshkent: 2008.
7. Farxodova Durdonha Mansur qizi. (2023). Boshlang’ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari. IQRO , 2(2), 58–61